ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# 2021- yil yanvar-oktabr oylarida ANDIJON VILOYATIDA xizmatlar sohasining rivojlanishi





Andijon – 2021 y.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta’minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste’mol harajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo‘sh vaqt samaradorligini oshiradi.



**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021- yil yanvar-oktabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **12 288,8** mlrd. so‘mga yetdi. Taqqoslama ekvivalentda o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati **121,9 %** ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari

*(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)*



**2021- yil yanvar-oktabr** *Dastlabki ma’lumotlar*

| Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari *(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)* | Hajmi, mlrd. so‘m | 2020- yilga nisbatan o‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| **Xizmatlar - jami** | **12 288,8** | **121,9** |
| *shu jumladan:* | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 534,9 | 111,5 |
| Moliyaviy xizmatlar | 2 887,8 | 153,8 |
| Transport xizmatlari | 2 525,9 | 113,4 |
| *shu jumladan:* avtotransport xizmatlari | 2 465,2 | 112,1 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 196,6 | 109,9 |
| Savdo xizmatlari | 3 680,4 | 112,1 |
| Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar | 337,3 | 117,2 |
| Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 484,4 | 124,1 |
| Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 200,6 | 110,0 |
| Ijara xizmatlari | 267,0 | 118,6 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar | 263,2 | 119,6 |
| Shaxsiy xizmatlar | 548,8 | 118,4 |
| Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 81,6 | 97,4 |
| Boshqa xizmatlar | 280,3 | 125,5 |

*2021- yil yanvar-oktabr* *Dastlabki ma’lumotlar*

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlarning tarkibi

## Nisbatan yuqori ulush

| Xizmat turi | Ulush |
|---|---|
| Savdo xizmatlari | 29,9 % |
| Moliyaviy xizmatlar | 23,5 % |
| Transport xizmatlari | 20,6 % |
| Shaxsiy xizmatlari | 4,5 % |
| Aloqa va axborotlash - tirish xizmatlari | 4,4 % |
| Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 3,9 % |
| Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar | 2,7 % |

## Nisbatan past ulush

| Ulush | Xizmat turi |
|---|---|
| 2,3 % | Boshqa xizmatlar |
| 2,2 % | Ijara xizmatlari |
| 2,1 % | Kompyuterlarni ta’mirlash xizmatl |
| 1,6 % | Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar |
| 1,6 % | Yashash va ovqatlanish xizmatlar |
| 0,7 % | Me’morchilik sohasidagi xizmatlari |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi **29,9** % ni tashkil etdi.

Me’morchilik sohasidagi xizmatlari hajmida eng past o‘sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **0,7** % ga yetgan.

***Taqqoslash uchun:*** 2020- yil yanvar-oktabr oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmda **31,8** % ni tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida Me’morchilik sohasidagi xizmatlarining ulushi ham eng kichik bo‘lgan – **0,8** %.

2021- yil yanvar-oktabr oylarida yuqori o‘sish moliyaviy xizmatlari (1**53,8** %), boshqa xizmatlari (1**25,5** %), ta’lim sohasida (1**24,1** %) qayd etildi.

***Taqqoslash uchun:*** 2020- yil yanvar-oktabr oylarida Moliyaviy xizmatlarda yuqori o‘sish sur’atlari qayd etildi (**125,1** %).

*2021- yil yanvar-oktabr* *Dastlabki ma’lumotlar*

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur’atlari taqqoslanishi, % da



*2021- yil yanvar-oktabr* *Dastlabki ma’lumotlar*

Info

**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste’mol sohasiga o‘tishini ta’minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma’lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste’molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo‘linadi.

2021- yil yanvar-oktabr oylarida, ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **29,9** % ni tashkil etdi, bu esa **3 680,4** mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.

***Taqqoslash uchun:*** 2020- yil yanvar-oktabr oylarida ularning hajmi **2 960,3** mlrd. so‘mga yoki umumiy hajmining **31,8** % iga to‘g‘ri kelgan.

## Savdo xizmatlari

**2020- y. yanvar-oktabr**

**Xizmatlar hajmi**
**2 960,3 mlrd. so‘m**

**O‘sish sur’ati**
**99,6 %**

**Ulushi**
**31,8 %**




**2021- y. yanvar-oktabr**

**Xizmatlar hajmi**
**3 680,4 mlrd. so‘m**

**O‘sish sur’ati**
**112,1 %**

**Ulushi**
**29,9 %**

***2021- yil yanvar-oktabr*** ***Dastlabki ma’lumotlar***

2021- yil yanvar-oktabr oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to‘rtdan uch qismini, aniqrog‘i **83,9** % ini tashkil etdi.

## Savdo xizmatlari tarkibi

*(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)*

**Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta’mirlash xizmatlarini qo‘shgan holda**

**7,3 %**



**83,9 %**

**Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar**



**Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**

**8,8 %**



*2021- yil yanvar-oktabr* *Dastlabki ma'lumotlar*

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobi bo'yicha olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar

*(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)*



Moliyaviy xizmatlar hajmi **2 887,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2020- yil yanvar-oktabr oylarida ularning hajmi **1 850,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **23,5** % ni tashkil etdi

***Taqqoslash uchun:*** 2020- yil yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi **19,9** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **1 037,2** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **153,8** % ni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2020- yil yanvar-oktabr oylarida ularning o'sish sur'ati **125,1** % ga yetgan.

***2021- yil yanvar-oktabr*** ***Dastlabki ma’lumotlar***

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug‘urta va nafaqa ta’minoti bo‘yicha xizmatlarda moliyaviy xizmatlarning ulushi **65,1** % ni tashkil etdi.

2021- yilning oktabr oyi yakuniga ko‘ra sug‘urta xizmatlarining ulushi **3,3** % oralig‘ida qayd etildi.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

*(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)*



*2021- yil yanvar-oktabr* *Dastlabki ma’lumotlar*

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta’sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma’lumotlarni to‘plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

*(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)*

| | 2020- y. yanvar-oktabr | 2021- y. yanvar-oktabr |
|---|---|---|
| Xizmatlar hajmi | 472,8 mlrd. so‘m | 534,9 mlrd. so‘m |
| O‘sish sur’ati | 111,2 % | 111,5 % |
| Jami hajmdagi ulushi | 5,1 % | 4,4 % |

**Hajmning o‘sishi**

**62,1 mlrd. so‘mga**

*2021- yil yanvar-oktabr* *Dastlabki ma’lumotlar*

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog‘i, yo‘ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **94,6** % ni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



*2021- yil yanvar-oktabr* *Dastlabki ma’lumotlar*

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

## Ta’lim sohasidagi xizmatlar

| 2020- y. yanvar-oktabr | | 2021- y. yanvar-oktabr |
|---|---|---|
| 354,1 mlrd. so‘m | Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi | 484,4 mlrd. so‘m |
| 96,9 % | O‘sish sur’atlari, % da | 124,1 % |



2021- yil yanvar-oktabr oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi **484,4** mlrd. so‘mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **3,9** % ni tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **124,1** % ni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida xizmatlar hajmi **354,1** mlrd. so‘mga teng bo‘lgan. 2019- yilga nisbatan o‘sish **96,9** % darajasi qayd etilgan.

*2021- yil yanvar-oktabr* *Dastlabki ma’lumotlar*

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo‘yicha qo‘yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o‘z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo‘yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta’minlash bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o‘z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar





| | 2020- y. yanvar-oktabr | 2021- y. yanvar-oktabr |
|---|---|---|
| Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m | 158,5 | 196,6 |
| O‘sish sur’ati, % da | 87,4 | 109,9 |

2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmi **38,1** mlrd. so‘mga ortdi.

## Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibi

**2021- y. yanvar-oktabr**

**93,0 %** **7,0 %**



**7,3 %** **92,7 %**

**2020- y. yanvar-oktabr**

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar**

**Yashash bo‘yicha xizmatlar**

2021- yil yanvar-oktabr oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlarning ulushi **93,0** % bilan ustunlik qildi.

*2021- yil yanvar-oktabr* *Dastlabki ma'lumotlar*

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

| 2020- y. yanvar-oktabr | | 2021- y. yanvar-oktabr |
|---|---|---|
| 158,7 mlrd. so'm | Xizmatlar hajmi | 200,6 mlrd. so'm |
| 82,3 % | O'sish sur'ati | 110,0 % |
| 1,7 % | Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi | 1,6 % |





*2021- yil yanvar-oktabr* *Dastlabki ma’lumotlar*

Zamonaviy O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog‘liqdir.

## Shahar va tumanlar kesimida ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur’atlari, % da

*(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)*




2021- yil yanvar-oktabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Andijon shahriga tegishli – **31,7** % (2020- yilda **31,4** %). Xizmat ko‘rsatish sohasining eng past ulushlari Ulug‘nor tumanida **2,7** % (2020- yilda **2,7** %) qayd etildi.

**2021- yil yanvar-oktabr** | **Dastlabki ma'lumotlar**

| Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar (2021- yil yanvar-oktabr ) | Hajmi, mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % da | |
|---|---|---|---|
| | | 2021- y. | 2020- y. |
| *Andijon viloyati* | 12 288,8 | 121,9 | 103,9 |
| *Shaharlar:* | | | |
| *Andijon sh* | 3 898,7 | 123,1 | 106,6 |
| *Xonobod sh* | 438,1 | 119,7 | 100,5 |
| *Tumanlar:* | | | |
| *Oltinko'l* | 550,0 | 121,8 | 100,8 |
| *Andijon* | 677,8 | 122,0 | 101,9 |
| *Baliqchi* | 608,6 | 122,3 | 100,6 |
| *Bo'ston* | 343,1 | 118,9 | 100,2 |
| *Buloqboshi* | 484,7 | 121,1 | 100,4 |
| *Jalaquduq* | 543,4 | 120,8 | 101,0 |
| *Izboskan* | 601,5 | 121,6 | 101,3 |
| *Ulug'nor* | 330,9 | 119,4 | 100,1 |
| *Qo'rg'ontepa* | 672,6 | 122,4 | 101,1 |
| *Asaka* | 758,5 | 122,6 | 102,3 |
| *Marhamat* | 500,6 | 120,6 | 100,7 |
| *Shahrixon* | 758,9 | 122,5 | 101,5 |
| *Paxtaobod* | 608,7 | 120,0 | 100,9 |
| *Xo'jaobod* | 512,6 | 121,2 | 100,7 |

*) *hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*

*2021- yil yanvar-oktabr* *Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo‘jalik hududlarini o‘zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste’molini oshirishni ta’minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko‘rsatkichlari

**Xizmatlar hajmi**

**3 825,1 ming so‘m**

**Hajmning o‘sishi**

**868,2 ming so‘mga**

**119,5 %**

**O‘sish sur’ati**



2021- yil yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 825,1** ming so‘mga yetdi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o‘sish sur’ati **119,5** % ni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:***

2020-yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 956,9** ming so‘mni tashkil etgan.

Info

**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug‘urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

## 2021- yilning 1- noyabr holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



**Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**

**26 383 birlik**

**2020- yilning mos davriga nisbatan ularning sonini o‘sishi**

**3 860 birlikga**



**2020- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’atlari**

**117,1 %**

**Ularning umumiy sonidagi ulushi**

**62,5 %**



*2021- yil yanvar-oktabr* *Dastlabki ma'lumotlar*

2021- yilning 1-noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **62,5** %, sanoat **22,9** %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **6,5** % ga yetdi. Qurilish sohasi **8,1** % ga to'g'ri keladi.

## 2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




***Taqqoslash uchun:*** 2020- yilning **1**- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **62,1** %, sanoat **22,9** %, qurilish **8,4** %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **6,6** % ni tashkil etgan.

***2021- yil yanvar-oktabr*** ***Dastlabki ma’lumotlar***

Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo‘lagiga aylandi, ko‘plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta’minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da




2021- yil yanvar-oktabr oylarida kichik tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **64,4** % ni tashkil etdi.

## 2021- yilning 1- noyabr holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik sub’yektlarining ulushi, % da

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*




2021- yilning 1- noyabr holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik sub’yektlarining hissasi **79,2** % ga to‘g‘ri keldi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo’limi.**
**Tel.: 74-228-30-83**